

## Xorazm viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar


(2018 yil yanvar-dekabr)

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2018 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2980,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2017 yilga nisbatan 122,8 foizga ko'paydi.

2018 yilda jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 33,9 foizi Urganch shahri, Xazorasp va Shovot tumanlarida mos ravishda jami investitsiyalarning 10,4 foiz va 14,5 foizi o'zlashtirildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2018 yilda 1637,2 ming so'm yoki 120,8 foizni tashkil etdi.

### 2018 yil aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (o'tgan yilga nisbatan)




Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida 7168,1 ming so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,2 foiz), Shovot va Yangibozor tumanlarida mos ravishda 2627,4 ming so'm (151,0 foiz) va 1327,6 ming so'm (192,5 foiz) qayd qilindi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi.**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan foizda
<b>Jami:</b>	<b>2980,0</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	325,9	10,9
Tog'-kon sanoati	0	0
Ishlab chiqarish sanoati	559,8	18,8
Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo	55,9	1,9
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishslash	87,8	2,9
Qurilish	113,7	3,8
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	117,4	6,1
Tashish va saqlash	262,0	8,8
Ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar	18,3	0,6
Axborot va aloqa	29,5	1,0
Moliya va sug'urta faoliyati	44,6	1,5
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	20,0	0,7
Ta'lim	134,4	4,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	87,5	2,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	6,2	0,2
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	762,6	25,6
Boshqa faoliyat turlari	288,9	9,2

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 55,3 foizdan ortig'i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltirildi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (10,9 foiz), ishlab chiqarish sanoati (18,8 foiz) va jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar (25,6 foiz).

## 2018 yil yanvar-dekabr uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (jamiga nisbatan foizda)



- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqarish sanoati
- Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqiindilarni yig'ish va qayta ishslash
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta'mirlash
- Tashish va saqlash
- Ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Moliya va sug'urta faoliyati
- Professional, ilmiy va texnik faoliyat
- Ta'lim
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- San'at, ko'ngil ochish va dam olish
- Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar
- Boshqa faoliyat turlari

**2018 yil yanvar-dekabrdan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

	<i>mlrd.so'm</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>2980,0</b>	<b>122,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>723,5</b>	<b>126,0</b>	<b>24,3</b>
byudjet mablag'lari	143,4	76,8	4,8
davlat maqsadli fond mablag'lari	329,6	200,0	11,1
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	47,6	76,4	1,6
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	202,9	126,7	6,8
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>2256,5</b>	<b>121,7</b>	<b>75,7</b>
korhonalarining o'z mablag'lari	976,0	121,8	32,7
aholi mablag'lari	658,0	97,6	22,1
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlari	152,7	646,7	5,1
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	469,8	131,1	15,8

2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbaining 54,8 foizini korhonalar va aholining o'z mablag'lari tashkil etgan. Jami investitsyaning 45,2 foizi jalb qilingan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi.